



# YOSHLARNING ILM-FANGA BO'LGAN QIZIQISHI VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI

## MAVLONOVA ZULAYHO ALLAMUROD QIZI

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va zamonaviy ta'lismining bu jarayondagi roli tahlil qilinadi. Ilm-fanga bo'lgan qiziqish nafaqat shaxsning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning innovatsion rivojlanishiga ham ta'sir etadi. Zamonaviy ta'lismi, o'quvchilarning ilmiy kimaoliyatini rag'batlantirish va ularning qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada zamonaviy ta'lismi metodlari, o'quvchilarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirish usullari va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta'siri ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Yoshlar, ilm-fan, ta'lismi, zamonaviy metodlar, qiziqish, innovatsiya.

### Kirish

Yoshlar – jamiyatning eng faol va ijodiy qismi bo'lib, ularning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi kelajakda mamlakatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lismi yoshlarni ilm-fanga yo'naltirishda va ularning qiziqishini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshirish nafaqat o'quv jarayonida, balki turli tadbirlar, loyihibar va ilmiy izlanishlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda zamonaviy ta'lismining ahamiyati ko'rib chiqiladi.

### Asosiy qism

Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Milliy taraqqiyotimizning yangi davrida xalqmizda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ayniqsa, yoshlarni milliy yuksalish g'oyasi atrofida birlashtirish, ularni



ilm-fan yutuqlari hamda raqamli texnologiyalar bilan qurollantirish orqali kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda dastur-ul amal bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lif tizimi o'quvchilarga bilim berishdan tashqari, ularning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga ham qaratilgan. Bu tizimda quyidagi asosiy jihatlar muhim ahamiyatga ega:

- Innovatsion metodlar: Ta'lif jarayonida interaktiv va innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Guruhli muhokamalar, loyiha asosida o'qitish va tajriba o'tkazish kabi usullar yoshlarning bilim olish jarayonida qiziqishini oshiradi.

- Axborot texnologiyalarining qo'llanilishi: Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarga keng ko'lamli ma'lumotlarga erishish imkoniyati yaratiladi. Onlayn platformalar, virtual laboratoriylar va interaktiv dasturlar yoshlarni ilm-fanga jalg qilishda muhim rol o'ynaydi.

- Ilmiy tadqiqotlar va loyihalar: O'quvchilarni ilmiy tadqiqotlar va loyihalarda ishtirok etishga rag'batlantirish ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayon ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi va yoshlarni innovatsion g'oyalar bilan tanishtiradi.

Yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun zamonaviy ta'lif tizimida bir nechta usullar qo'llanilishi mumkin:

- Muloqotga asoslangan ta'lif: O'quvchilarni faol muloqotga jalg qilish, ularning fikrlarini erkin ifoda etishiga yordam beradi. Bu usul orqali yoshlar bir-biridan o'r ganadilar va ilmiy muhokamalarda ishtirok etadilar.

- Amaliy tajriba: O'quvchilarga amaliy tajribalar o'tqazish orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon yoshlarning qiziqishini oshiradi va ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

- Ilmiy-tadqiqot faoliyati: O'quvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalg qilish, ularning mustaqil fikrlash va analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayonda mentorlik va rahbarlik qilish ham muhimdir.

Yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi ularning kelajakdag'i muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Ilm-fan sohasida faoliyat yurituvchi yoshlar

innovatsion g‘oyalar yaratishda, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda va jamiyatning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ularning qiziqishi va bilimlari kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shtiradi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 1500 mingdan ziyod 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar turli xil ixtirolari uchun patentlar olgan. Bu ko‘rsatkich faqatgina O‘zbekistonidagi davlat oliy ta’lim muassasalari miqyosidagi statistik ma’lumotlar bo‘lib, aslida yosh ixtirochilarimizning soni bundan-da ko‘pligi quvontiradi. Aynan shunday yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2019 yildan boshlab, yosh olimlar, talabalar, umuman tashabbuskor fuqarolar «Innovatsion g‘oyalar yetakchisi» ko‘krak nishoni bilan taqdirlanadilar. Joriy yilning 1 apreldidan 30 aprelgacha ko‘krak nishoni bilan taqdirlashga oid davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik sub’ektlari taqdim etayotgan dastlabki takliflar tuman va shahar hokimliklarida tuzilgan komissiyalar tomonidan qabul qilinmoqda. Tadqiqotlar bilan, tadqiqotlarni amalga tatbiq qilish bilan shug‘ullanayotgan yoshlarning e’tirof etilishi yurtimizda ilm-fan bilan shug‘ullanish qay darajada nufuzli ekanini anglatadi.



### Xulosa

Yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismidir. Innovatsion metodlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish va ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin. Bu jarayon nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatning innovatsion rivojlanishiga



ham xizmat qiladi. Kelajakda muvaffaqiyatli yosh avlodni tarbiyalash uchun zamonaviy ta'lif tizimini rivojlantirish zarur. Ko'hna Xitoy mutafakkiri Konfutsiy: "Agar rejangiz bir yillikbo'lsa, sholi eking, o'n yillik bo'lsa, daraxt eking, yuz yillik bo'lsa – bolalaringizga ta'lif bering", deya bejiz ta'kidlamagan. Kelajakda kutilgan "hosil"ni yig'ish uchun O'zbekistonimizda hozirdan keng imkoniyatlar yaratilyapti, yoshlarni ilm-u ma'rifatga rag'batlantirish, ilm egalarini qadrlashga qaratilgan tizim shakllantirilyapti.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 55-bet.
2. Shuxrat Sattorov, "Biz g'alaba qozonamiz","Bilim va intellektual salohiyat" nashriyoti 2018
- 3.<https://mininnovation.uz/oz/news/2322><https://xs.uz/uz/post/alisher-sadullaev-yoshlar-uchinchi-renessans-drajverlari-bolaoladimi>
4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 may kuni ilm-fan va oliv ta'lif sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan. <https://kun.uz/uz/news/2019/05/28>
5. PF-6097 sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi prezident farmoni. <https://lex.uz/docs/-5073447>
6. "O'zbekiston respublikasi oliv ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-4545884>
7. "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. <https://lex.uz/docs/-4571490>